

**RAQAMLI BOZOR IQTISODIYOT SHAROITIDA
SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH**

Bobomurod Norboyev

Termiz Davlat Universiteti

Norboyevbobomurod600@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada soliq imtiyozlarining hisobga olinish muammolari va uning yechimi keltirilgan. Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari bo'yicha schyotlar rejasiga kiritilish zaruriyati asoslangan.

Kalit so'zlar: soliq, soliq imtiyozi, maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari, maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari.

Аннотация. В данной научной статье представлены проблемы учета налоговых кредитов и их решение. Необходимость включения в план счетов обусловлена неправомерным использованием налоговых льгот.

Ключевые слова: налог, налоговый кредит, нецелевые налоговые кредиты, целевые налоговые кредиты.

Abstract. This scientific article presents the problems of accounting for tax credits and their solution. The need for inclusion in the chart of accounts is due to the unlawful use of tax **benefits**.

Key words: tax, tax credit, non-targeted tax credits, targeted tax credits..

KIRISH

So'ngi vaqtlarda tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo amaliyotida, shuningdek mamlakatimiz soliq to'g'risidagi qonunchiligida qo'shilgan qiymat soliq (QQS)ni hisoblab chiqarish va uni to'lash hamda nol darajali stavkada hisoblanadigan soliq solinadigan aylanmani aniqlash va uning o'rnini qoplash mexanizmlari haligacha qiyinligicha qolmoqda.

Jahon amaliyotida qo'shilgan qiymat solig'ining hisobi metodikasini takomillashtirishga oid olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida bir qator ilmiy natijalar olingan. Shu jumladan, QQSning optimal stavkasi 15-20 foizni tashkil qilishi, soliq stavkasining pasaytirilishi byudjet daromadlari yetishmovchiligiga olib kelishi hamda bu yuqori soliq stavkasining joriy qilinishi yashirin iqtisodiyotga olib kelishi isbotlangan (KPMG, London).

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga berilayotgan soliq imtiyozlarini asoslanganligi va ularni berilgan maqsadlarga mos ishlatilishini nazorat qilish buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida uning iqtisodiy mohiyatini o'rganishimiz zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Soliq imtiyozlariga turli iqtisodiy adabiyotlarda va me'yoriy hujjatlar turlicha ta'riflar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasida soliq imtiyozlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari deb e'tirof etiladi. Soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo'lishi mumkin emas"[1].

"Soliqlar bo'yicha imtiyozlar soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirishi sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lar maqsadli ishlatilmagan taqdirda maqsadsiz ishlatilgan mablag'lar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirilishi lozim. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shagan va mazkur imtiyozlarning amal qilish davrida foydalanilmagan mablag'lar summasi berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan so'ng bir yil davomida ularni taqdim etishda belgilangan maqsadlar uchun yo'naltirilishi mumkin. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag'lar budjetga o'tkazilishi lozim"[1]

Soliq imtiyozlari borasida xorijiy olimlardan I.A.Mayburov soliq imtiyozlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha imtiyozlar olishga imkon beruvchi imtiyozlar hamda ularni bir nechta shakllarga ajratgan, jumladan: soliq krediti, investitsion soliq imtiyozi, soliq ta'tili turlariga ajratgan[2].

V.G.Panskov soliq imtiyozining iqtisodiy mohiyatini quyidagicha izohlaydi: Soliq imtiyozi - bu soliq to'lovchiga beriladigan maqsadli imtiyozli huquq yoki soliqqa tortish bazasidan va soliq solish obyektidan maqsadli chiqarib tashlash, uni soliq tizimiga kiritish muayyan maqsadga erishish uchun mo'ljallangan va iqtisodiy, budjet, fiskal yoki ijtimoiy samaradorlikni uning yordamida aniqlash mumkin[3].

Xususan Respublikamiz olimlaridan F.Raxmatullayeva soliq imtiyoziga quyidagicha ta'rif bergan: "imtiyozlar - bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir"[4].

U.X.Normurzayev "Soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodini bergan holda amalga oshirish kerakligini maqsadga muvofiq"[5] - deb hisoblaydi. Yuqorida keltirilganlardan xulosa qilish mumkinki, soliq imtiyozlari soliqni to'lamaslik yoki ularni ko'zda tutilganidan kamroq miqdorda to'lash imkoniyati ekan.

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, mantiqliylik va guruhlash usullaridan foydalanildi. 2017-2021 yillarda respublikamizda qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha zanjiri yaratilishi borasida amalga oshirilgan islohotlar va soliq imtiyozlari, davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatga molik tovarlarga (xizmatlarga) qo‘shilgan qiymat solig‘ining ta‘siri tahlil qilindi..

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 sentabrdagi “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 595-son qarori [6] 6-bandi g-kichik bandi uchinchi xatboshisida 2021 yil 1 dekabr qadar mavjud soliq imtiyozlari bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yaratish va har bir soliq imtiyozi uchun alohida soliq imtiyozi unikal kodini (ID-raqamini) berish tartibini joriy etish hamda soliq imtiyozlari kodlari to‘g‘risidagi axborotlarni soliq to‘lovchilarning shaxsiy kabinetiga yetkazib berish amaliyotini joriy etish vazifasi yuklatilgan. Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun soliq imtiyozlarining hisobini yuritish maqsadga muvofiq.(1-jadval).

2018-2022 yillarda soliq turlari bo‘yicha qo‘llanilgan soliq imtiyozlari tahlili, mlrd so‘mda

1-jadval

№	Soliq turlari	2018 yil		2019 yil		2020 yil		2021 yil		2022 yil	
		soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
	Jami	59 792	22707,56	68113	29 136,0	93871	31 065,6	109363	43 479,3	195884	72 963,7
1	QQS	2 322	14989,50	11380	23 073,8	7 031	24 643,3	15 508	36 766,3	28 214	64 107,9
2	Foyda solig‘i	291	1 832,02	763	2 785,4	3 335	2 930,0	2 709	2 219,5	25 015	4 641,3
3	Yer solig‘i	5 499	1 183,69	6 736	880,1	4 531	1 313,2	11 743	2 575,9	6 204	931,8
4	Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq	8 321	393,06	33866	789,0	44093	917,9	56 165	1 073,8	41 580	1 028,3
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7	797,97	31	469,3	673	443,7	1 376	39,1	685	12,3
6	Ijtimoiy soliq	30 258	495,80	3 993	340,9	6 230	346,5	11 247	386,3	52 616	1 187,4
7	Mol-mulk solig‘i	220	897,27	382	583,2	4 813	274,0	2 195	306,1	7 809	933,0
8	Aylanmadan olinadigan soliq	12 530	1 325,66	10962	214,3	23165	196,9	8 420	112,3	32 921	97,2

1-jadvalda 2018-2022 yillarda soliq turlari bo‘yicha qo‘llanilgan soliq imtiyozlari bo‘yicha tahlil keltirilgan bo‘lib, 2018 yilda soliqlar bo‘yicha jami 59 792 ta tashkilotga 22 707,56 mlrd. so‘m, 2019 yilda 68 113 ta tashkilotga 29 136,0 mlrd. so‘m, 2020 yilda 93 871 ta tashkilotga 31 065,6 mlrd. so‘m, 2021 yilda 109 363 ta tashkilotga 43 479,3 mlrd. so‘m va nihoyat, 2022 yilda 195 884 ta tashkilotga 72 963,7 mlrd. so‘m soliq imtiyozlari qo‘llanilganini ko‘rish mumkin.

Alohida soliq turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, 2018 yilda QQS bo'yicha berilgan imtiyozlar summasi 2 322 ta tashkilotga nisbatan 14 989,50 mlrd. so'mni tashkil etib, eng katta imtiyoz berilgan soliq turiga aylantirilganligini ko'rish mumkin. 2022 yilda bu summa ushbu soliq turi bo'yicha 28 214 ta tashkilotga nisbatan 64 107,9 mlrd. so'mni tashkil etib yana eng katta soliq imtiyoziga ega bo'lib turganligini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi soliq imtiyozlarining katta summasi yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan foyda solig'iga to'g'ri kelishini guvohi bo'lish mumkin. 2018 yilda foyda solig'i 291 ta tashkilotga nisbatan 1 832,02 mlrd. so'm, 2022 yilda esa 25 015 ta tashkilotga nisbatan 4 641,3 mlrd. so'mni tashkil etayotganligini ko'rish mumkin.

Soliq imtiyozlar muayyan maqsadga yo'naltirish sharti bilan beriladi va maqsadsiz beriladigan imtiyozlarga bo'linadi.

“Soliq qonunchiligiga asosan soliq imtiyozlaridan bo'shagan mablag'larni boshqa maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilangan maqsadda foydalanilgan summa o'rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda budjetga to'liq undirib olinadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar munosabati bilan bo'shagan hamda ushbu imtiyozlarning amal qilish muddati ichida foydalanilmagan mablag'larning summasi imtiyozlar berilayotgan chog'da belgilangan maqsadlarga mazkur imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan keyin bir yil mobaynida yo'naltirilishi mumkin. Bunda ko'rsatilgan muddatda foydalanilmagan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga o'tkaziladi”[1].

Iqtisodiy jihatdan alohida ahamiyatga ega bo'lgan maqsadli soliq imtiyozlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish metodikasini ko'rib chiqamiz. Bu imtiyozlarning buxgalteriya hisobi 8840 “Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari” schyotida yuritiladi.

Endi bu schyotlar bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishni ko'rib chiqamiz.

1. Tovarlar – moddiy zaxiralar import chog'ida QQS va aksiz solig'i to'lashdan ozod qilish

natijasida bo'shagan mablag'lar summasiga:

Debet – 6990 “Import chog'ida QQS va aksizlar bo'yicha hisoblab yozilgan soliq imtyozlari” schyoti;

Kredit - 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari”.

2. Mahsulotlarni realizatsiya xajmida eksportga sotilgan mahsulotlarning ulushi 56 foizni tashkil qilganligi tufayli foyda solig'idan berilgan imtiyoz summasiga, ushbu summa foyda solig'i hisobotining 040 satridan olinadi:

Debet – 6410 “Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari (turlari bo'yicha)” schyot;

Kredit – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti

3. Soliq imtiyozlari natijasida bo'shagan mablag'lar asosiy vositalarning xarid qilishga, asosiy vositalarni rekonstruksiya va texnologiyalarni modernizatsiya qilishga yo'naltirilganda: Debet – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari”; Kredit – 8530 “Tekinga olingan mulk” schyoti.

4. Soliq imtiyozlari natijasida bo'shagan mablag'lar joriy majburiyalarni qoplashga yo'naltiradi:

a) olingan tovarlar bo'yicha qapzni qoplashga yo'naltiriladi;

Debet – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti;

Kredit – 6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar” schyoti.

b) ish haqi hisoblanganda:

Debet – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti;

Kredit – 6710 “Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar” schyoti.

v) Ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliqqa ajratilganda:

Debet – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti;

Kredit – 6420 “Ijtimoiy soliq” schyoti.

5. Imtiyozli davri tugaganda va hisobot yilining oxirida ishlatilmasdan qolgan imtiyoz summaları O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga o'tkaziladi (2-4 operatsiyalar bo'yicha):

Debet - 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyoti;

Kredit - 6410 “Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari (turlari bo'yicha)” schyoti.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 75-moddasiga asosan korxonalar imtiyoz davri tugagandan so'ng yana bir yil mobaynida bo'shagan pul mablag'larini maqsadli sarflashi mumkin. Ushbu davrda ham imtiyozdan foydalanmasa keyingi yilda foydalanilmagan imtiyoz summalarini davlat budjetiga qaytaradi. Ushbu jarayonni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish maqsadida 8850-“Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari” nomli ishchi schyotni ochishni va uni schyotlar rejasiga kiritishni tavsiya qilamiz. 8850-“Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari” nomli ishchi schyotni ochish asosida quyidagi buxgalteriya yozuvlari kiritiladi:

Imtiyoz davri tugaganidan keyin bir yil mobaynidagi muddatga quyidagicha:

Debet 8840-“Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari”;

Kredit 8850-“Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari”.

Imtiyoz davri tugaganidan keyin bir yil muddat o'tgandan so'ng budjetga qaytarilishi quyidagicha: Debet 8850-“Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari”;

Kredit 6410-“ Budjetga to'lovlar bo'yicha qapz”. Bu soliq to'lovchilarni soliq imtiyozlaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha ma'suliyatini oshiradi. Shuningdek, soliq imtiyozlarining summaları buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettiriladi. 8850-“Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari” nomli ishchi schyotni ochish zaruriyati nimadan kelib chiqdi. O'rganish va tahlillar shuni ko'rsatmoqdagi, ko'p hollarda soliq

imtiyozlarining muddati tugagandan so‘ng imtiyozlar maqsadsiz ishlatilmoqda (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekistonda 2015-2021 yillarda soliq imtiyozlaridan samarasiz foydalangan korxonalarda aniqlangan kamchiliklar, (mlrd. so‘m)

№	Yillar	Soliq imtiyozidan foydalangan korxonalar		Noto‘g‘ri foydalanganligi bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan		Shundan,			
						Kameral nazorat natijasiga ko‘ra		Soliq tekshiruvlari natijasiga ko‘ra	
		soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	Summasi
1.	2015	58377	12 450,9	622	14,8	536	11,6	86	3,2
2.	2016	28617	10 924,4	769	21,9	677	6,1	92	15,8
3.	2017	33631	15 753,1	267	11,4	217	2,4	50	8,9
4.	2018	61178	22 707,5	579	54,6	380	7,9	199	46,7
5.	2019	48765	29136,1	456	44,9	276	8,2	180	36,7
6.	2020	59415	31065,6	786	98,3	451	24,5	-	-
7.	2021	47482	42 089,0	1024	324,6	966	219,8	58	104,8

Mazkur 2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki 2015 yilda jami 622 ta tadbirkorlar tomonida 14,8 mlrd. so‘m, 2018 yilda 579 ta korxonalarda 54,9 mlrd. so‘mni hamda 2021 yilda esa 1024 ta korxonalarda 324,6 mlrd. so‘m hajmida imtiyozlardan noto‘g‘ri foydalanilgan bu esa soliq imtiyozlarini bekor qilishga asos bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, soliq qonunchiligiga asosan berilgan soliq imtiyozlaridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan moliyaviy nazoratni, shu jumladan soliq tekshiruvlarini yanada kuchaytirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz:

1.“Yuridik shaxslarga soliqlar bojlar va majburiy to‘lovlarni budjetga to‘lash bo‘yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan maqsadli berilgan soliq imtiyozlari 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schotida hisobga olish ko‘zda tutilgan. Imtiyozli davri tugaganda va hisobot yilining oxirida ishlatilmasdan qolgan imtiyoz summaları hisobdan chiqariladi va quyidagi schotlar korrespondensiyasi tuziladi: Debet 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schoti, Kredit 8530 “Tekinga olingan mulk” schoti. Bizning fikrimizcha, maqsadli soliq imtiyozlari bo‘yicha imtiyoz davri tugagandan keyin hisobdan chiqarishda ishlatilmagan summani 8720 “Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)” schotining kreditiga olib borish maqsadga muvofiq, bunga quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi: Dt – 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari”, Kt – 8720 “Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan

zarar)”. Bu taklifdan asosiy maqsad soliq imtiyozi davri tugagandan keyin ishlatilmasdan qolgan summa doimiy nazoratda bo‘ladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar bu mablag‘larni boshqa maqsadlarda ishlatishi mumkin.

2. Maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan holda beriladigan soliq imtiyozlariga ham alohida balans schotini ochish va unda hisobini yuritish maqsadga muvofiq. Bizning fikrimizcha, buning uchun 8850 “Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari” schotini schotlar rejasiga kiritish zarur. Bu maqsadsiz beriladigan soliq imtiyozlarini shakllanishi va ularni ishlatilishi ustidan nazoratni kuchaytiradi. Yuqorida keltirilgan 8840 “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” va 8850 “Maqsadsiz ishlatiladigan soliq imtiyozlari” schotlar bo‘yicha ishchi schotlar har bir soliq turi bo‘yicha, shu jumladan, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha ham ochiladi. Bu esa har bir soliq turlari bo‘yicha soliq imtiyozlari nazoratini ta’minlash imkonini yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2024.
- [2] Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. Ред. 4-е изд. - М: 2011г. 558с
- [3] Пансков В.П. Налоговые льготы: сущность и определение. ЖУРНАЛ. ЭТАП: экономическая теория, анализ, практика. 2018.
- [4] Rahmatullayeva F. “Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag‘batlantirishdagi roli” Moliya ilmiy jurnali №2/2016 108 bet.
- [5] Normurzayev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2022
- [6] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 sentabrdagi “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 595-son qarori.
- [7] Джалилов, Р. (2023). Совершенствование расчета льгот по налогу на добавленную стоимость. *Economics and Education*, 24(2), 272–278. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a42.
- [8] Джалилов Р.Х. Нормативно-правовая база по порядку организации камерального контроля в Республике Узбекистан и ее значение. *Экономика и социум*. №103. 2022.